

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI, UNING  
SHA'NI VA QADR-QIMMATINI TA'MINLASH BORASIDA AMALGA  
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

*NAVBAHOR TUMANI 25 - UMUMTA'LIM MAKTABI GEOGRAFIYA FANI*

*O'QITUVCHISI*

***TO'RAYEVA DILNOZA RUSTAMOVNA***

*25 MAKTAB INFORMATIKA O'QITUVCHISI TOG'AYEVA GULOYIM*

*ESHMUROD QIZI 25 MAKTAB RUS TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHISI*

***IBODOVA LOBAR ZIYODULLA QIZI***

**Annotatsiya:** O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasi](#) doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash sohasida aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi va "Jamiyat — islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, milliy strategiya, xalqaro-huquqiy standart, konstitutsiya, milliy qonunchilik, inson manfaatlari, ijtimoiy-siyosiy faollik, inson taraqqiyoti, Harakatlar strategiyasi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini faol izladi, bu davr Vatanni erkin, kuchli va ravnaq topayotgan diyorga aylantirishga

intilish davri bo`ldi. Jahon hamjamiyatiga kirish, davlatlararo ko`p qirrali aloqalarning eng maqbul yo`llari izlandi. Bularning barchasi jamiyatning yangilanishi O`zbekistonga xos yo`lni keltirib chiqardi. Bu yo`l ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga jahon tajribasini, shuningdek, xalqimizning turmush tarzini, an`analarini, urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan, konstitutsion asosga ega bo`lgan respublika aholisining manfaatlariga to`la mos tushadigan taraqqiyot jarayonidir. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning tub maqsadi insonga munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat. Mustaqillik tufayli xalqimizning asriy orzulari ro`yobga chiqdi, millatning g`ururi, or-nomusi, sha`ni tiklandi. Har bir fuqaro o`z orzu-umidlariga mos ravishda hayot kechirish, ozod va obod yashash baxtiga muyassar bo`ldi. Mamlakatimizda Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi bo`lib inson huquqlari bo`yicha milliy institutlarga asos solingan. Xususan, 1995-yilda Parlament Ombudsmani lavozimi joriy etildi. U inson huquqlariga oid masalalarni o`rganish va hal etish bo`yicha ko`plab vakolatlarga, Qoraqalpog`iston Respublikasi va barcha viloyatlarda o`z vakillariga ega. Inson huquqlari bo`yicha milliy markaz faoliyat ko`rsatayotganiga 25 yildan oshdi. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va boshqa tashkilotlar faoliyati ham soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O`zbekistondagi islohotlarning zamirida “Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun” degan hayotbaxsh g`oya mujassam. Shu sababli jamiyatda o`zaro tenglik, adolat va haqiqatni qaror toptirish uchun ham inson huquqlari birinchi galda asosiy qonunlarda kafolatlanadi. Bosh qomusimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi e`tirof etilgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 26-moddasi ikkinchi qismida hech kim qiynoqqa solinishi, zo`ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas, deb belgilab qo`yilgan. Yaqinda tasdiqlangan va mohiyatiga ko`ra BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning “yo`l xaritasi”ga aylangan “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishni takomillashtirishga doir yaqin istiqbolga mo‘ljallangan aniq chora-tadbirlar dasturi belgilandi. 2017-yil mamlakatimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini” yili, deb e‘lon qilindi. Odamlarning talab va istaklarini ro‘yobga chiqarish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Joylarda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini aholining huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi ochildi. Prezident devoni tarkibida inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi uchta yangi tuzilma tashkil etildi. Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha sudga daxli bo‘lmagan yangi mexanizm – Biznes-Ombudsman tuzildi. Inson huquq va manfaatlarini ta‘minlashda Oliy Majlis palatalari faol ishtirok etmoqda. “Harakatlar strategiyasi” doirasida joriy yilda qariyb 50 ta qonun hujjati qabul qilinadi. Shu jumladan, ichki ishlar idoralari, korrupsiyaga qarshi kurashga doir qonunlar allaqachon amal qilmoqda. Parlament nazorati izchillik bilan joriy etilmoqda. Hukumat a‘zolari parlamentga hisobot bermoqda. Deputatlar har oyda 10 kun joylarda bo‘lib, haqiqiy ahvolni o‘rganmoqda. Yurtimizda onalar va bolalar huquqlarini himoya qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha izchil ish olib borilmoqda. O‘zbekistonda o‘lim jazosi bekor qilingan. “Xabeas-korpus” instituti bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Mamlakatimiz mahkumlar eng kam davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda 8 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Mahalla instituti uyg‘onish davriga kirdi. Yurtimizda millatlararo va dinlararo totuvlikni ta‘minlash bo‘yicha noyob tizim yaratilgan bo‘lib, 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashamoqda. Ta‘lim 7 tilda olib borilmoqda. Teleradio dasturlari 12 tilda tayyorlanayotgan bo‘lsa, gazeta va jurnallar 14 tilda chop etilmoqda. So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy

qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Bola huquqlari bo‘yicha vakil va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil lavozimlari joriy qilindi. Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta‘minlashning noyob tizimi yaratildi. “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar — kelajagimiz”, “Besh tashabbus” kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va konsepsiyalari amalga oshirilmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo‘yicha yuqori indeksga ega bo‘lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Ta‘lim va tarbiya sohasida keng ko‘lamli tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilga borib, 3 — 7 yoshdagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda. 11 yillik maktab ta‘limi tizimi qayta tiklandi. Bugungi kunda davlat, nodavlat va xorijiy oliy o‘quv yurtlarining soni ortib bormoqda. O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi nufuzi oshirilmoqda hamda xalqaro darajada “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” tamoyili asosida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2020-yilga kelib 74,6 yoshga yetdi, onalar o‘limi bir yarim baravar hamda bolalar o‘limi esa, to‘rt baravarga kamaydi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar

Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu borada Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan yaqin hamkorlikda ko‘rilgan ta'sirchan choralar tufayli bolalarning majburiy mehnatidan foydalanish illatiga barham berildi. Bularning barchasi O‘zbekiston inson huquqlari va qadriyatlarini tan olishi hamda o‘zining xalqaro manfaatlariga sodiq ekanining yorqin ifodasi hisoblanadi. Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiya (Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi) ning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeyi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Milliy strategiyaning maqsadi — O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash bo‘yicha izchil olib borilayotgan davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab olish hisoblanadi.

Milliy strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, umume’tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish;

2) 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish;

3) O‘zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so‘z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo‘yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta’minlash;

4) inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlarni yaratish, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish;

5) shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlarni o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish;

6) jinoyatchilikning, ayniqsa odam savdosi, korrupsiya, qiynoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlash;

7) aholining imkoniyati cheklangan, kam ta’minlangan guruhlar huquqlarini BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining “hech kimni orqada qoldirmaslik” tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta’minlash, davlat va jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo‘lgan shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi

fuqarosi bo‘lmagan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish;

8) din, so‘z va fikr erkinligi, ma‘lumot olish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, gender tenglikni ta‘minlash, barchaning sifatli ta‘lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va migrantlar huquqlarini himoya qilish sohalarida huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish;

9) oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlardan qo‘llab-quvvatlash darajasini oshirish;

10) insonning iqtisodiy huquqlarini ta‘minlash, xususiy mulkchilik va davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish;

11) ta‘limning sifati va barcha darajadagi qamrovini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, o‘qitish tizimining inklyuzivligi va undan barchaning foydalana olishini ta‘minlash;

12) inson huquqlari sohasida axborot-ma‘rifiy faoliyatining sifati hamda manzilligini yaxshilash;

13) davlatlararo munosabatlarni, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini uyg‘unlashtirish, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomaviy organlarning tavsiyalarini sifatli va o‘z vaqtida bajarish maqsadida innovatsion tamoyillarni joriy etish;

14) BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a‘ziligiga O‘zbekiston Respublikasi saylanishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Eng muhimi, qabul qilingan qarorlar va amaliy harakatlar natijasida xalqning davlatga bo‘lgan ishonchi ortmoqda. Odamlar davlatga emas, davlat odamlarga xizmat qilishi amalda ta‘minlanmoqda. O‘tgan davrda yurtimizda inson huquqlari sohasida ko‘p ishlar qilinib, bu sohasidagi holat butunlay o‘zgardi. Majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatilib, inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilindi. Eng muhimi, BMTning fuqaroligi bo‘lmagan insonlar sonini kamaytirishga

qaratilgan chaqirig'iga javoban joriy yilning o'zida 50 ming yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi berildi. Aytish mumkinki, ushbu tarixiy voqelik parlament xususan, Qonunchilik palatasi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Endilikda inson huquqlari sohasida boshlangan ishlarni, jumladan sohaning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, eng asosiysi, xalqaro majburiyatlarni bajarishda parlament nazoratini kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, inson haq-huquqlari va uni himoya qilish barcha jamiyat uchun hamisha dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlari nafaqat inson manfaatlari ta'minlanishiga, balki do'stona munosabatlar qaror topishiga ham zamin yaratadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020 yildagi PF-6012-son.
3. B.B.Xasanov., A.M.Ruzmetov. "Inson huquqlari va manfaatlari oliy qadriyatdir" "Scientific Progres" jurnali. // ISSN:2181-1601. Volume 3, Issue 4, 2022.
4. <https://xs.uz/>
5. <https://kun.uz/>